

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>O‘RXON PAMUQNING “SASSIZ UY” ROMANIDA “YOLG‘IZLIK”  
MOTIVI*Dilbarxon Asadova**O‘qituvchi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** O‘rxon Pamuq, “Sassiz uy” romani, postmodern roman, motiv, roviylar, polifoniya, dekonstruksiya, o‘yin hodisasi, parodiya, pastish

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada turk postmodern adabiyotining yetakchi vakillaridan bo‘lgan O‘rxon Pamuqning “Sassiz uy” romanidagi yolg‘izlik motivi ochib berilgan. Maqolada postmodern matnning eng muhim xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Ma’lumki, oxirgi yarim asrda postmodernizm barcha fan sohalari qatori badiiy adabiyotning ham kun tartibidan joy oldi. Postmodern matnda hamma narsa o‘yin kabi namoyon bo‘ladi. Tarixiy va xayoliy, ijtimoiy va axloqiy motivlar muallif tomonidan o‘yin sifatida taqdim qilinadi.

Maqolada “Sassiz uy” romanidagi qahramonlarning bir-birlariga qarshi his qilgan muhabbat, nafrat tuyg‘ulari ochib berilgan. “Sassiz uy” romani yozuvchining ikkinchi romani hisoblanadi. Romanning asosiy mavzusi sevgi. Romanda har bir epizod personaj nuqtayi nazaridan birinchi shaxsda hikoya qilinadi. “Sassiz uy” romanida postmodern romanga xos xususiyatlardan biri roviylarning ko‘pligi va polifoniya kuzatiladi. Romanning asosiy g‘oyasi “yolg‘izlik” muammosini yechishga qaratilgan bo‘lib, butun bir avlodning yolg‘izlikning turli darajasidagi taqdirlari kesishmasidan iborat. Asardagi ko‘plab sevgi voqealari umidsizlik, tushkunlik yoki iztirob bilan tugaydigan umumlashmalardan tashkil topgan.

“Sassiz uy” romani O‘rxon Pamuqning postmodern romanchilik an‘analarini boshlab bergan asari hisoblanadi. O‘rxon Pamuq ijodining asosiy g‘oyasi Sharq-G‘arb madaniyati o‘rtasidagi ziddiyatlar muammosini yechishdir. Yozuvchi ijodining bosh g‘oyasini ushlab turgan bu yirik konflikt o‘z ichida konservatorlik va liberallik, islom va nasroniylik, qadriyatlar va ommaviy madaniyat kabi yana bir

qancha ziddiyatlarni qamrab oladi. O'rxon Pamuq romanlarini o'ziga xos turk postmodern romani an'anasini yaratish maqsadi ilgari surilgan matnlar deyish mumkin. Yozuvchi har bir asarida o'ziga xos strukturadan foydalanadi, asarda o'zidan avvalgi adabiy manbalardan motiv olishdan cho'chimaydi. Eski motivlarni qayta ishlab, ulardan o'zining g'oyasini yuzaga chiqarishda, fikrini o'quvchiga yetkazishda mahorat bilan foydalanadi.

---

## THE MOTIF OF "LONELINESS" IN THE NOVEL "SASSIZ UY" BY ORKHAN PAMUQ

*Dilbarkhan Asadova*

*Lecturer,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Orkhan Pamuk, "Silent House" novel, postmodern novel, motive, narrators, polyphony, deconstruction, game event, parody, pastiche.

**Abstract:** This scientific article reveals the motif of loneliness in the novel "Silent House" by Orkhan Pamuk, one of the leading representatives of Turkish postmodern literature. The article discusses the most important features of the postmodern text. It is known that in the last half century, postmodernism has taken place in the agenda of fiction as well as in all fields of science. In the postmodern text, everything appears as a game. Historical and fictional, social and moral motives are presented by the author as a game. The article reveals the feelings of love and hatred felt by the heroes of the novel "Silent House" against each other. The novel "Silent House" is the writer's second novel. The main theme of the novel is love. In the novel, each episode is narrated in the first person from a character's point of view. One of the characteristics of the postmodern novel is the multiplicity of narrators and polyphony in the novel "Silent House". The main idea of the novel is aimed at solving the problem of "loneliness" and consists of the intersection of fates of a whole generation at different levels of loneliness. Many of the love stories in the play are made up of generalizations that end in despair, depression, or anguish.

The novel "Silent House" is Orkhan Pamuk's work that started the postmodern novelistic tradition. The main idea of Orkhan Pamuk's work is to solve the problem of conflicts between Eastern and Western cultures. This major conflict, which holds the main idea of the writer's work, includes several other conflicts such as conservatism and liberalism, Islam and Christianity, values and popular culture. Orkhan Pamuk's novels can be said to be texts whose purpose is to create a unique Turkish postmodern novel tradition. The writer uses a unique structure in each of his works, he is not afraid to take motifs from previous literary sources. He reworks old motifs and skillfully uses them to reveal his

ideas and convey his thoughts to the reader.

## МОТИВ «ОДИНОЧИЯ» В РОМАНЕ ОРХАНА ПАМУКА «САССИЗ УЙ»

*Дилбархан Асадова*

*Преподаватель,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Орхан Памук, роман «Дом Тишины», постмодернистский роман, мотив, повествователи, полифония, деконструкция, игровое событие, пародия, стилизация.

**Аннотация:** В данной научной статье раскрывается мотив одиночества в романе «Дом Тишины» Орхана Памука, одного из ведущих представителей турецкой постмодернистской литературы. В статье рассматриваются важнейшие черты постмодернистского текста. Известно, что в последние полвека постмодернизм занял место в повестке художественной литературы, а также во всех областях науки. В постмодернистском тексте все предстает как игра. Историко-художественные, социальные и нравственные мотивы представлены автором в виде пьесы.

В статье раскрываются чувства любви и ненависти, которые испытывали герои романа «Дом Тишины» друг к другу. Роман «Дом Тишины» — второй роман писателя. Главной темой романа является любовь. В романе каждый эпизод рассказывается от первого лица с точки зрения персонажа. Одной из характеристик постмодернистского романа является множественность повествователей и полифония в романе «Дом Тишины». Основная идея романа направлена на решение проблемы «одиночества» и состоит в пересечении судеб целого поколения на разных уровнях одиночества. Многие любовные истории в пьесе состоят из обобщений, которые заканчиваются отчаянием, депрессией или страданием.

Роман «Дом Тишины» — произведение Орхана Памука, положившее начало постмодернистским романистическим традициям. Основная идея творчества Орхана Памука — решение проблемы конфликтов между восточной и западной культурами. Этот крупный конфликт, в котором заключена основная идея творчества писателя, включает в себя несколько других конфликтов, таких как консерватизм и либерализм, ислам и христианство, ценности и массовая культура.

Романы Орхана Памука можно назвать текстами, целью которых является создание уникальной традиции турецкого постмодернистского романа. Писатель использует уникальную структуру в каждом своем произведении, он не боится брать мотивы из прежних литературных источников. Он перерабатывает старые мотивы и умело использует их, чтобы раскрыть свои

## KIRISH

Zamonaviy dunyo adabiyotida janrlar transformatsiyasi adabiy tendensiya darajasiga ko'tarilayotgan, klassik adabiyot an'analari reformaga uchrayotgan bir paytda o'zbek adabiyotshunosligi ham bu ilg'or tendensiyalar bilan hamohang bo'lmog'i maqsadga muvofiq. So'nggi yillarda zamonaviy dunyo adabiyoti, xususan, turkiy adabiyot vakillarining ijodi tadqiq etilib kelinmoqda. Bu an'anani davom ettirgan holda mazkur maqolada turkiy xalqlar adabiyotida birinchi bo'lib adabiyot bo'yicha Nobel mukofotini qo'lga kiritgan O'rxon Pamuq ijodidagi postmodernizmning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Turk postmodern adabiyoti deganda old qatorlarda tilga olinadigan yozuvchi O'rxon Pamuq ijodining katta qismini romanlar tashkil qiladi.

Postmodern matnning eng muhim xususiyatlaridan biri bu o'yin hodisasidir. Matnda hamma narsa o'yin kabi namoyon bo'ladi. Tarixiy va xayoliy, ijtimoiy va axloqiy motivlar muallif tomonidan o'yin sifatida taqdim qilinadi. Postmodernizm oqimi vakillari *"hamma narsa ko'zgu, asl degan narsaning o'zi yo'q va hamma narsa taqliddan iborat"*, degan qarashni ilgari surishadi<sup>1</sup>. Roviyning ham, qahramonning ham pozitsiyasi o'zgarib, matnda o'quvchi eng ahamiyatli shaxsga aylanadi. Muallif o'z matnini deyarli o'quvchi bilan birga yaratadi va bu jarayonni adabiyot endi o'zini o'zi yaratadi, deb hisoblashadi. Boshqa adabiy mahsulotlar matnning motiviga aylanib, yozuvchi va o'quvchi birgalikda matn tuzishadi. Bu yo'nalishdagi asarlarni kuzatar ekanmiz, postmodern matnlar juda ko'p ma'no qarama-qarshiliklarini o'z ichiga olishini ko'rish mumkin. Asar so'nggida atay o'quvchining umidlari puchga chiqariladi. Motivning asl manbasini parodiya va pastish bilan qadrsizlantirish ularning asosiy xususiyati hisoblanadi. Parodiyadan farqli o'laroq, pastishda asl manba hurmat qilinadi, kinoya yoki mazaxga o'rin berilmaydi.

Postmodern matnning yana bir e'tiborga molik xususiyati – bu o'zidan avvalgi modern uslubda yashiringan roviyni faol shaxs sifatida taqdim eta olishdir. Roviyni an'anaviy prozada to'laqonli obyektiv qolishi zarur. Bu adabiy asarning muhim shartlaridan biridir. Yozuvchi asarda o'zining pozitsiyasini, qahramonga nisbatan simpatiya yo antipatiasini bildirishdan tiyilib turishi shart. O'n to'qqizinchi asr turk romanchiligi namunalari muallif o'quvchini ibrat olishga va xulosa chiqarishga chorlaydigan didaktik roviy sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, muallif roviyni to'liq o'ziga bo'ysundiradi. Modern romanlarda roviyning o'zini o'zi fosh etishi va badiiy asar matniga bevosita yoki bilvosita aralashuvi texnik nuqson deb hisoblangan. Bu illatni bartaraf etish maqsadida "avtobiografik hikoya", "ichki nutq", "ong oqimidagi roviylik" kabi bayon qilish usullari qo'llanilgan. Shu tariqa roviy asarda soyaga aylantirilgan. Postmodern romanda esa bu an'anaga qarshi boriladi. Ayniqsa, metafiksatsiya ustuvor bo'lgan matnda roviy badiiy strukturaning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Oxirgi yarim asrda postmodernizm barcha fan sohalari qatori badiiy adabiyotning ham kun tartibidan joy oldi. Postmodern roman atamasi ilk bor Amerikada adabiyotshunos Ijob Hassan tomonidan qo'llanilgan. 1960-yillarning boshida postmodern adabiyotning strukturasi va

<sup>1</sup> Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. O'quv qo'llanma / Ulug'bek Hamdam. – T.: "Akademnashr", 2020, 67-bet

tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lsa, 90-yillarning boshlariga kelib turk adabiyotida keng ko'lamli munozaralar boshlandi. Turk postmodern mutafakkirlari va yozuvchilari san'atda erkinlik va demokratlashtirish talabi bilan chiqishga urinishdi. 1980-yildan keyin spektakl, kinoya va fantastik elementlar bilan to'ldirilgan asarlar o'sha davr adabiy muhitining ko'ngilochar maydoniga aylandi 1950-yildan keyin sanog'i ko'paygan qishloq romanlari, didaktik romanlar o'z o'rnini yanada murakkab asarlarga bo'shatib berdi. Turk postmodern yozuvchilari yangi xayoliy dunyo yaratishda faollashishdi. Ular avvalgi davrlarga oid matnlar olamidani motiv va hikoya qilish texnikasini o'zlashtirib, iqtiboslar va havolalar keltira boshlashdi, parodiya va pastishlar ko'paydi.

O'rxon Pamuk ijodining asosiy g'oyasi Sharq-G'arb madaniyati o'rtasidagi ziddiyatlar muammosini yechish hisoblanadi. Yozuvchi ijodining bosh g'oyasini ushlab turgan bu yirik konflikt o'z ichida konservatorlik va liberallik, islom va nasroniylik, qadriyatlar va ommaviy madaniyat kabi yana bir qancha ziddiyatlarni qamrab oladi. Pamuk o'zining uzoq yillik ijodiy faoliyati bilan turk adabiyotini dunyoga mashhur qildi, Nobel mukofotini qo'lga kiritdi. O'rxon Pamuk romanlari o'ziga xos turk postmodern romani an'anasini yaratish maqsadi ilgari surilgan matnlar deyish mumkin. Yozuvchi har bir asarida o'ziga xos strukturadan foydalanadi, asarda o'zidan avvalgi adabiy manbalardan motiv olishdan cho'chimaydi. Eski motivlarni qayta ishlaydi, ulardan o'zining g'oyasini yuzaga chiqarishda, fikrini o'quvchiga yetkazishda mahorat bilan foydalanadi.

Postmodern romanga xos bo'lgan yana bir muhim jihat – bu roviylarning rang-barangligidir. Boshqa an'anaviy uslublardagi roviyning yakkaxonligini yengish istagi postmodern matnning bir nechta roviylar tomonidan hikoya qilinishiga imkon beradi. Pamukning "Mening ismim Qirmizi" romanining hikoya qilish uslubi ana shu rang-baranglikni ta'minlab bergan<sup>2</sup>. Pamuk dastavval "Sassiz uy" asarida voqelik talablariga amal qilgan holda qo'llagan bu usulni "Mening ismim qirmizi" romanida miqdor va sifat jihatidan ancha erkin tarzda qo'llagan. Ellik to'qqiz bobdan iborat sujetni o'n to'qqiz roviy hikoya qiladi. Roviylarning shaxsi esa goh real voqelik ichida bo'lsa, goh xayolot mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Roviylarga daraxt, it, o'lim, surat, qizil kabi narsa va tushunchalar ham roviy o'laroq ko'maklashadi.

O'rxon Pamuk turk adabiy muhitida realizmning hukmronligi va yangi oqimlarning omadsizlik pallalarida adabiyotga kirib keldi. U turk postmodern adabiyotining yetakchilari qatoriga kirdi. Keyinchalik xotiralarida Pamuk shunday eslaydi: "1974-yildan boshlab "Jevdet Bey va o'g'illari"ni yozishni boshladim. O'sha davrda turkiy adabiyotda hukmron bo'lgan roman uslubi va adabiy mafkura qishloq doirasidan chetga chiqmasdi. "Javdat Bey va o'g'illari"ni yozayotgan edim, adabiyotga unchalik yaqin bo'lmagan bir tanishim "Roman yozyapsiz, lekin qishloq hayotini bilasizmi?" deb so'radi. Uning uchun roman bu qishloqda sodir bo'lgan voqea edi. Qishloq romani turk adabiyotining so'nggi qirq yillik tarixida shunchalik muhim o'rin tutganki, hech bir odam bundan farqli fikrlamasdi. Bu hodisa jahon adabiyoti tarixida ham kam uchraydi. 1930-yillardan 1970-yillargacha bo'lgan davrda Turkiya shaharlashgan bo'lsa ham, qishloq haqida o'zgacha tarzda gapiradigan adabiyot va roman uslubining hali hamon hukmronligiga chek qo'yish uchun zarurat paydo bo'lib ulgurgandi. Men ilk bor yozishni boshlaganimda bu ishning naqadar og'irligini his qildim".<sup>3</sup> O'rxon Pamuk bu qisqa nutqida o'z ijodiy prinsiplarining ustuni bo'lgan ikki jihatni alohida ta'kidlaydi. Ulardan

<sup>2</sup> Orhan Pamuk, Benim Adım Kırmızı, Yapi Kredi Yayınları, İstanbul, 2019, – B. 555

<sup>3</sup> Orhan Pamuk, "60'lardan Bu Yana Romanda Fazla Değişiklik Yok", (Soruşturma Cevabı), Hürriyet Gösteri, Mayıs 1989. B. 16–17



birinchisi tarixdan foydalanish haqiqati bo'lsa, ikkinchisi g'arbcha roman muhitidan qutulish va romanlariga ajnabiy shakl berish tashvishi. Pamuqning 1983-yilda nashr etilgan ikkinchi romani "Sassiz uy"dagi voqealar 1980-yil yozida Istambulga yaqin joylashgan Jennethisor shahrida bo'lib o'tadi. Uch aka-uka shu yerda yashovchi buvisinikiga mehmonga kelishadi. Sujetni asr boshidan 1980-yillargacha bo'lgan vaqtni eslash tartibida qurgan Pamuq roman shaklini ham o'zgacha tarzda barpo etgan. Bu romandagi voqealar ko'p qirrali tushunchalar qo'llash orqali besh kishining nuqtayi nazaridan taqdim etilgan. Bu badiiy adabiyotda perspektiva texnikasi deyiladi. Ushbu usul "Sassiz uy" romaniga harakat, hayotiylik va dinamika beradi. "Sassiz uy" asari ham mukofotga loyiq deb topildi va O'rxon Pamuqqa keng o'quvchilar ommasiga ega bo'lish imkonini berdi. Bu asari bilan Pamuq romanga tarix motivlaridan foydalanishni boshlaganini hamda shakl bo'yicha tajribalar o'tkazganini ko'ramiz. Yozuvchi 1985-yilda AQSHda maxsus yozuvchilar kursida tahsil oladi. Shundan so'ng yozuvchilik qirralarini yanada o'tkirlashtirishga va zo'r berib ijod qilishga kirishadi. O'sha paytlarda Turkiyada yozuvchilar maktabini tashkil qilishni rejalashtirgan. U Turkiyada yozuvchi bo'lish uchun olti-yetti yil azob chekishga to'g'ri kelishini aytgan. "Agar yaxshi narsa yozgan bo'lsangiz, u har qanday diplomdan qimmatroqdir",<sup>4</sup> deydi Pamuqning o'zi bu haqida.

"Sassiz uy" romani O'rxon Pamuqning postmodern romanchilik an'analarini boshlab bergan asari hisoblanadi. Romanning asosiy g'oyasi "yolg'izlik" muammosini yechishga qaratilgan. Unda butun bir avlodning yolg'izlikning turli darajasidagi taqdirlari kesishmasidan iborat. Asardagi ko'plab muhabbat voqealari umidsizlik, tushkunlik yoki iztirob bilan yakunlanadigan umumlashmalardan tashkil topgan. Romanda Pamuq yolg'izlik mavzusini o'rtaga tashlaydi va uy ramzi orqali barcha taqdirlarni bir yerga jamlaydi. "Sassiz uy" asarini o'tgan asrning 80-yillaridagi turk yoshlarining ruhiyatini, umumkayfiyatini tadqiq etishga bag'ishlangan deb ayta olamiz.

"Sassiz uy" romanining zamoni konkret vaqtni o'z ichiga oladi.<sup>5</sup> Romanda 1980-yilning yozida Istambuldan ellik kilometr uzoqlikdagi Jennethisorga, buvisi Fatma Hanimnikiga ta'tilni o'tkazish uchun kelgan uch aka-ukaning bir haftalik sarguzashtlari hikoya qilinadi. Romanning asosiy mavzusi sevgi haqida bo'lib, bu mavzuning eng muhim xususiyati, romanda ko'rsatilgandek, uning javobsiz ekanidir. Asardagi ko'plab sevgi voqealari umidsizlik, tushkunlik yoki iztirob bilan tugaydigan umumlashmalardan iborat. "Sassiz uy" romanida har bir epizod personaj nuqtayi nazaridan birinchi shaxsda hikoya qilinadi. Postmodern romanga xos xususiyatlardan biri roviylarning ko'pligi va polifoniya kuzatiladi. Romanda besh nafar roviy qatnashadi: Rajab, Fatma Xonim, Hasan, Faruk va Metin. Boshlovchi bobning roviysi Rajab, yakunlovchi bobning roviysi Fatma Xonimdir. Rajab 1, 6, 13, 19, 27, 30-boblarda, Fatma Xonim 2, 7, 11, 16, 23, 29, 32-boblarda, Hasan 3, 8, 12, 17, 20, 22, 26, 31-boblarda, Faruk 4, 9, 14, 18, 24, 28-boblarda va Metin 5, 10, 15, 21, 25-boblarda roviylik qiladi.

Roman haqida Pamuqning o'zi: "Barcha kitoblarim orasida yoshlar ko'proq "Sassiz uy"ni yaxshi ko'rishlarini bilaman. Balki o'sha kitobda mening yoshligim, qalbim to'la-to'kis ochilgani, unda nimadir borligi uchundir... U yerdagi yoshlarning har biri men edim. Ularning kayfiyati bilan o'yin amalga oshirdim, bundan zavq oldim",<sup>6</sup> deb yozadi. Ilk muhabbat tuyg'usi yoshlik hayajonidan, yosh qalbdagi hislar faolligidan kelib chiqqan sevgidir. "Sassiz uy"da Metinning Jeylarga bo'lgan sevgisi shu xildagi sevgiga mos tushadi. Metin yozgi ta'tilni

<sup>4</sup> Orhan Pamuk, *Saf ve Düşünceli Romancı*, İletişim Yayınları, İstanbul, 2011, B. 56

<sup>5</sup> Orhan Pamuk, *Sessiz Ev*, İletişim Yayınları, İstanbul, 1996

<sup>6</sup> Orhan Pamuk, *Sessiz Ev*, İletişim Yayınları. İstanbul. 1996. – B. 298.

o'tkazish uchun kelgan Jennethisorda Jeylanni bir qarashda sevgi deyish mumkin bo'lgan tarzda sevib qoladi<sup>7</sup>. Jeylan esa bu o'tkinchi hissiyot ekanligini va Metinning unga nisbatan hech narsa his qilmasligini anglaydi. Sevgisi javobsiz qolgan Metin tashqi voqelikka yopiladi. Romanda Metin atrofida rivojlanayotgan sujet zanjirining asosini tashkil etuvchi Metin-Jeylan muhabbati umidsizlikka olib keladi. Hasanning Nilgunga bo'lgan ishtiyoqi vaqt o'tishi bilan sevgiga aylanganda ikkinchi muhabbat liniyasi paydo bo'ladi. Hasan Nilgunni bolaligidan taniydi. Oradan ancha vaqt o'tib Nilgunni voyaga yetgan, to'lishgan va go'zallashgan qiz sifatida ko'rgach, uning his-tuyg'ulari muhabbatga aylanadi. Nilgun avval Hasanga eski tanishi sifatida yaqinlashadi, u bilan iliq munosabatda bo'ladi<sup>8</sup>. Keyin o'rtadagi dunyoqarashlar ziddiyati paydo bo'lganini sezib, undan uzoqlashishga harkat qiladi. Hasanning Nilgunga bo'lgan muhabbati ancha achinarli tugaydi. Hasandan yegan kaltaklari tufayli Nilgunning miyasiga qon quyilib, u erta vafot etadi.

Asardagi uchinchi muhabbat chizig'i Dog'an va Gul o'rtasida kechadi. Dog'an turmush o'rtog'i Gul bilan baxtli turmush qurgan, lekin ular ham hayot beradigan sinovlar qanday bo'lishini oldindan bilishmaydi. Gul nimjon va zaif bo'lgani uchun, farzandli bo'la olmasdan vafot etadi. Dog'anning ham hayotdan ko'ngli sovib, tashqi dunyoga yopiladi. Xotini vafotidan ko'p o'tmay o'zi ham olamdan o'tadi. Yana bir baxtli sevgi voqeasi umidsizlik va fojia bilan tugaydi. Roman sujetida yana bir muhabbat chizig'i mavjud bo'lib, Fatma Xonim va Salohiddin Beyning turmushidir. Fatma Xonim endigina o'n olti yoshida turmushga chiqqan Salohiddin beyga nisbatan muhabbatni his qilsa, Salohiddin Beyning unga nisbatan murosasiz munosabati nikohni boshi berk ko'chaga olib kiradi. Bu oila shunchaki muhabbatsiz ittifoq sifatida talqin qilinadi. Faruk turmush o'rtog'i bilan baxtli turmush qurdi. Biroq ko'p ichgani va farzand ko'rmagani uchun vaqt o'tishi bilan ularning munosabatlari buziladi. Oxir-oqibat, ular ajrashishadi. Faruk xotinini hamon sevayotgandek tuyuladi, lekin nikohini saqlab qolishning hech bir imkoni mavjud emas.

Romandagi "muhabbat" mavzusida aks ettirilgan bu tushkunlik muhiti o'zi bilan birga "yolg'izlik" mavzusini ham olib keladi. Metin va Hasanning muhabbatga bo'lgan ehtiyoji yolg'izlikdan kelib chiqadi. Metin onasiz ulg'ayishi natijasida yuzaga kelgan ichki ziddiyatni yechishga harakat qiladi. Uning javobsiz sevgisi battar yolg'izlikka tashlagan. Hasan esa onasidan, otasidan, odamlardan topa olmagan sevgini Nilgunda topa olaman deb o'ylaydi. Bu mumkin emasligini ko'rib, aqlini nazorat qila olmay qoladi va natijada uning telbalarcha xatti-harakati o'limga olib keladi<sup>9</sup>. Pamuq "Sassiz uy"da muhabbat va yolg'izlik simmetriyasini ko'rsatib bermoqchi bo'ladi. Asarning nomi ham yolg'izlikka ishora qiladi. Romandagi eng yolg'iz odam deya baholash mumkin bo'lgan obraz Fatma Xonimdir. Fatma o'z turmushiga boqib, atrofdagilar kabi qulay, tinch va osoyishta hayotni sog'inadi. Doktor Salohiddin Beyning haddan tashqari qattiqqo'l xatti-harakati eri va Fatma Xonim o'rtasida devor qo'yadi. Turmush o'rtog'ining shu kabi qoidalari tufayli Fatma Xonim yetmish yildan beri bu uydan, umuman, Jennethisordagi muhitdan tashqariga chiqmagan. Kamdan kam holda uydan ko'chaga chiqadi. Asarda u go'yo o'zini yolg'izlikka mahkum qilgan kishi kabi ko'rinadi.

Asarda Fatma Xonimning xizmatkori Rajab ismli obraz bo'lib, u jismoniy ahvoli tufayli yolg'iz. Bolaligida kaltaklanishi natijasida gavdasi kichik bo'lib qolgan Rajab shu voqea asorati tufayli yolg'izlikni boshdan kechiradi. Ko'chaga faqat tunda chiqadi, lekin odamlarga ko'p

<sup>7</sup> O'sha asar S. 51.

<sup>8</sup> O'sha asar S. 57.

<sup>9</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, İletişim Yayınları. İstanbul. 1996. – B. 255-256

aralashmaydi. Pamuq har xil darajadagi yolg'iz insonlarning obrazini yaratarkan, yolg'izlikning turli kategoriyalarini badiiy ifoda etadi. Romanda o'lim mavzusi ham bor. Deyarli har kuni gazeta sahifalarida siyosiy mojarolar natijasida yuz bergan o'lim haqidagi xabarlar chiqib turadi. Nilgunning o'limi romandagi sujet chizig'ining kulminatsiyasini tashkil qiladi. O'limga olib kelgan sabablar u qadar ishonchli tasvirlanmaydi. Bu o'lim kutilmagan tarzda taqdim etiladi<sup>10</sup>. "Sassiz uy" matn ostidagi matn orqali hozirgi siyosiy va ijtimoiy muhitni aks ettirgan romandir. Bu muhit 1980-yil yozida, Turkiyaning eng keskin davrida bor-yo'g'i bir hafta ichida bo'lib o'tadi. Javobsiz sevgi, yolg'izlik va o'lim kabi mavzular olib kelgan tushkunlik, iztirob va qayg'u mamlakatdagi keskin muhitning timsollar va ramzlar orqali aks ettirilishidir.

"Sassiz uy" romani 32 bobdan tashkil topgan. Roman Fatma Xonimning xizmatkori Rajabni tanishtirish bilan boshlanadi<sup>11</sup>. Xonim ovqatlaniganidan so'ng, Rajabning tunda ko'chaga chiqishi aytiladi. Shu nuqtada biz Rajab bilan bog'liq ziddiyatni ko'rsatadigan bir holatga duch kelamiz. Qahvaxonada yoshlar uzoqdan Rajabni masxara qilishadi. Buning sababi gazetadagi mitti odamchalar uchun qurilgan uy haqida so'z boradi<sup>12</sup>. Rajabning bo'yi pastligi uni jamiyatdan uzoqlashtirib, ijtimoiy shaxsga aylantirib qo'ygan. Hatto ukasi Ismoilning uyiga ham kamdan kam boradi. Rajab kinoteatrdan chiqib, uyiga qaytadi va Fatma Xonim bilan gaplashadi. Bu ikki kishining o'rtasida majburiy ittifoq borgan o'xshaydi. Ular o'rtasidagi munosabatlar xo'jayin-qul munosabatlaridan farqli, hamdardlik munosabati bo'lib tuyuladi. Ushbu bobda Fatma Xonimning to'qson yoshda ekanligini, o'n olti yoshida shifokor Salohiddin Beyga turmushga chiqqanini va turmushga chiqqanidan keyin to'rt yil o'tib Jennethisorga ko'chib o'tishganini bilib olamiz. Fatma Xonimning asosiy konflikti eri Salohiddin Beyning xatti-harakatlari va dunyoqarashlar o'rtasidagi tafovut bilan bog'liq. Salohiddin Bey Usmonlilar imperiyasi va Sharq haqidagi hamma qarashlarni tubdan rad etadi. Fatma Xonim esa tinch, osoyishta va oddiy hayotni orzu qiladi. Salohiddin Bey siyosiy faoliyati tufayli bu yerga surgun qilingan. Fatma Hanimning maqsadi qachondir bo'lsa ham Istanbulga qaytish. Salohiddin Bey esa Sharq va G'arb o'rtasidagi tafovutni yo'qotishiga ishongan maxsus qomusni yozish bilan shug'ullanadi<sup>13</sup>.

Romanning uchinchi bobida o'quvchi Hasan bilan tanishadi. Hasan Ismoilning o'g'li, ya'ni u Rajabning jiyanidir. Hasan o'zini do'stlar davrasida ham, jamiyatda ham yolg'iz his qiladi. U tanishtirilishi bilan romandagi sujet chizig'ini faol harakatga keltiradigan voqea sodir bo'ladi. Hasan mashinada uch kishini ko'radi. Bular Fatma Xonimning nabiralari Faruk, Nilgun va Metin. To'rtinchi bobda bu uch aka-singilning qasrga kelishi va joylashishi haqida hikoya qilinadi. Romanning asosiy sujeti beshinchi bobda boshlanadi. Ushbu epizoddan boshlab, o'quvchi qahramonlarning har birining atrofida rivojlanadigan holatlar zanjiri bilan ular bir haftani qanday o'tkazishini kuzatib boradi. Beshinchi bobda Metin eski do'sti Vedatni uchratadi. Romandagi holatlar zanjiridan biri Metin atrofida rivojlanadi. Vedat uni Jennethisorning boy mahallasidagi yosh bolalar bilan tanishtiradi. Bu yerda Metin Funda, Fahrinisa, Fikret, Turan va Jeylan bilan uchrashadi. Metin obrazi boylik va qashshoqlik o'rtasidagi konfliktida rivojlangan. O'zi ziyoli inson bo'lsa-da, bu yoshlar orasidan o'rin olish uchun qilgan ishlarini yashirishiga to'g'ri keladi. Bu orada u Jeylanni sevib qolayotgani haqida o'ylaydi. Ertasi kuni ertalab Nilgun sohilga qaytganida, oila birgalikda nonushta qiladi. Xuddi shu kuni ular qabristonni ziyorat qilish

<sup>10</sup> O'sha asar. B. 256.

<sup>11</sup> O'sha asar. B. 5.

<sup>12</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, İletişim Yayınları. İstanbul. 1996. B.10.

<sup>13</sup> O'sha asar. B. 24-25.



uchun borishadi. Bu bobda Fatma Xonimning o'tmish hayotiga qaytib eslagan xotira lavhalaridan iborat. Xuddi shu epizodda Fatma Xonimning yolg'iz farzandi Do'g'anning taqdiri haqida ham ma'lumot olamiz. Yettinchi bob Do'g'anning xotini Gulning ruhiga o'qiladigan "Fotiha" surasi bilan tugaydi<sup>14</sup>. Bu orada Hasanning qabristondagilarni poylayotgani, keyin Nilgunga ergashib, u bilan suhbatlashish imkoniyatini yaratgani tasvirlanadi<sup>15</sup>. Nilgun uni eski tanishi sifatida iliq munosabatga kirishadi.

Faruk esa bu bir haftalik muddatni Gebze tuman hokimligi arxivida o'tkazish niyatida. Diqqat qaratish lozimki, romanning 9, 14, 18 va 24-boblarida Farukning arxivdagi izlanishlari mahsulini ko'ramiz. Bu boblarda tarixchilik sohasining xususiyatlari, tarix tushunchasining mazmuni haqida so'z boradi. O'n to'rtinchi bobda retrospektiv tasvir orqali Farukning yolg'izligi haqida ma'lumot beriladi. Roman davomida Metin kechalari yangi do'stlari bilan Jennethisor va Gebze bo'ylab sayohat qiladi, diskotekaga boradi va kunlarini bazmu jamshid bilan o'tkazadi. O'n beshinchi bobda Metinning xarakteridagi bahsli jihat bo'lgan boyluk orzusi haqida so'z ochiladi. Metin bor bilimni ishga solib, Amerikada ishlab kelib, Turkiyaga qaytgach, yolg'iz yashaydigan afsonaviy odam bo'lishni orzu qiladi. Jeylan yodiga tushishi bilan yolg'izlik mavzusi uni yana qarama-qarshi tuyg'ular girdobiga tashlaydi. Yigirma birinchi bobda Metinning Jeylarga bo'lgan qiziqishi ehtirosiga aylangani ko'rinib qoladi. Bu bob holatlar zanjiriga qo'shilish nuqtayi nazaridan sujet markazida Metin turgan boshqa boblardan farq qilmaydi. Metinning Amerika va boyluk yig'ish orzusi bilan Jeylarga bo'lgan muhabbati konflikt hosil qiladi. Metin sujetdagi intrigani kuchaytiradigan harakatga kirishadi. Metin mast holda Jeylan bilan sohil aylanadi va Metin Jeylan o'zining sevgisini javobsiz qoldirmasligiga ishonib, unga yaqinlashishga harakat qiladi<sup>16</sup>. Jeylan bu muhabbatni javobsiz qoldiradi va undan uzoqlashadi. Keyingi bobda Metin atrofida paydo bo'lgan holatlar zanjirining oxirgi bo'g'ini taqdim etiladi. Sohildagi voqeadan bir necha kun o'tib, Metin va Fikret o'rtasida konflikt yuz beradi. Mojaro markazida Jeylan masalasi turadi. Fikret ham Jeylarga befarq bo'lmagani uchun bu chigal masalaga yechim topish lozimligini Metin yaxshi tushunadi. Fikret unga nisbatan boy ekani haqida o'ylarkan, Jeylanning Fikretga nisbatan ko'ngli borligini tushunib yetadi. Shu nuqtada u Jeylanni butunlay yo'qotadi.

"Sassiz uy" romanida dekonstruksiyanı ko'rish mumkin. Bu tushunchaga professor Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagicha ta'rif bergan: *"Postmodern adabiy asarni tadqiq etishning metodologik tayanchi sanaladigan dekonstruksiya tushunchasining mohiyati har qanday matndagi ichki imkoniyatlarni aniqlab, undagi nafaqat oddiy o'qirman, balki shu asarni yozgan muallifning ham xayolida bo'lmagan, ammo so'zlarning o'zida tabiiy ravishda hamisha bor bo'lib, muayyan o'zgarish natijasida qalqib chiqadigan yangi ma'nolarni topishdan iboratdir"*<sup>17</sup>. Asardagi "sassiz uy" butunlik, bu xonadonning a'zolari esa bo'lak vazifasini bajargan.

Mazkur bobda yana bir konflikt kuzatiladi. Bu ziddiyat Metin va mafkurachi yoshlar o'rtasida rivojlanadi. Bu yoshlar tarkibida Hasan ham bor bo'lib, Metin uyga qaytguncha ularga duch keladi. Uni badavlat yoshlardan biri sifatida ko'rgan mafkurachi yoshlar undan pul undirmoqchi bo'lishadi. Metinning bir hafta ichida sodir bo'lgan holatlar zanjiri uning Fatma Xonimning hovlisiga qaytishi bilan yakunlanadi. Romanda Hasan atrofida rivojlanayotgan

<sup>14</sup> O'sha asar. B. 51.

<sup>15</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, İletişim Yayınları. İstanbul. 1996. B. 53-54.

<sup>16</sup> O'sha asar. B. 90.

<sup>17</sup> Qozoqboy Yo'ldosh. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar. "Jahon adabiyoti", 2015 -yil, 10-son.

holatlar zanjiri sakkiz qismga bo'lingan. 8, 12, 17, 20, 22, 26 va 31-boblar Hasan atrofida kechgan voqealarni qamrab oladi. O'n ikkinchi bobda Hasanning oilasi va maktab bilan bog'liq ziddiyatlar tasvirlanadi<sup>18</sup>. Bu konflikt Hasanning yolg'izligini ta'kidlash bilan birga, boshqa ziddiyatlarga ham yo'l ochadi. Hasanning otasi uning o'qishini, jamiyatda o'z o'rnini topishini istaydi. Shuning uchun u ba'zan o'g'lini kaltaklashdan ham toymaydi. Hasan ham imkon qadar uydan uzoqroq yuradi. Uyiga doim xonasining derazasidan kiradi. Bu kabi tasvirlar Hasanning yolg'izlik tarixiga o'xshaydi. Xuddi shu epizodda Hasanning maktab bilan bog'liq ziddiyatini ham kuzatamiz. Hasan o'rta maktabdagi o'qishning ikkinchi yilida darslar hayotdan uzilganligini, u o'rganadigan hech narsa yo'qligi haqida o'ylaydi. Hasanning asosiy ziddiyati uning chetga chiqish, jamiyat uchun muhim va hurmatli inson bo'lish orzusi bilan uni xo'rlagan, qadrsiz deb hisoblagan muhit o'rtasida kechadi. Bu epizodda ham Hasanning Nilgunga bo'lgan muhabbati ortib borayotganini ko'ramiz. O'n yettinchi bobda Hasanning oilasi bilan kechadigan konflikti yanada chuqurroq yoritilgan<sup>19</sup>. Kambag'al oilada tug'ilgani uchun Hasan o'zini boshqalar orasida kamsitilgandek his qiladi. Bu mojaro ham uni Nilgunga yaqinlashishiga xalaqit beradi. Nilgun har kuni ertalab dengiz sohiliga boradi, so'ng doim o'qiydigan "Jumhuriyat" gazetasini sotib olish uchun oziq-ovqat do'konida to'xtaydi va keyin uyiga qaytadi. Hasan uning ortidan oziq-ovqat do'koniga boradi. Shu nuqtada, sujetdagi aktini oshiradigan va unga butunlay boshqacha shakl beradigan holat yuz beradi:

*– Menga "Jumhuriyat" gazetasi kerak!*

*Men hayratdaman. Unga angrayib qaradim: gazetasini olib, jinoyat va gunoh haqida eshitmagandek eshikdan chiqib ketayotganini kuzatayotgandim, birdan qo'limga shisha olib yugurdim.*

*– Demak, siz kommunistik gazetani o'qiyapsiz! – dedim.*

*– Janob? – dedi Nilgun va bir zum menga yomon qaramadi. U shunchaki qaradi, nimanidir anglamoqchi bo'ldi, so'ng gaplarimni tushundi va cho'chib, hech narsa demay mendan uzoqlashdi".<sup>20</sup>*

Bu voqea Hasan atrofida shakllangan holatlar zanjirining birinchi bo'g'inini tashkil qiladi. Yigirmanchi va yigirma ikkinchi boblarda Hasanning mafkurachi do'stlari bilan to'qnash kelganini ko'ramiz. Bu konfliktlar asosiy holat zanjirini tashkil etuvchi vaziyatning paydo bo'lishida yordam bo'lib xizmat qiladi. Hasanning Nilgunga bo'lgan muhabbatini o'rgangan idealist yoshlar, Hasandan bu tuyg'uning sabablarini tushuntirishini istashadi. Ular Nilgunni sotsialist deb bilishadi. Hasanning fojiasi uning idealist do'stlari bilan Nilgun o'rtasida qolib ketishidan kelib chiqadi. Hasan Nilgunni himoya qiladi va unga tegmaslikni so'raydi, idealist yoshlar esa Hasandan Nilgun kommunist emasligiga ishontirishini so'rashadi. Nilgun sotib olgan gazetani tekshirib ko'rishadi, u sotib olgan "Jumhuriyat" gazetasini olib, yirtib tashlashadi<sup>21</sup>. G'oya va muhabbat konflikti Hasanning yolg'izlik sabablaridan eng asosiysidir.

Yigirma ikkinchi qismda ham Hasanning oilasi bilan bo'lgan ziddiyatiga yana guvoh bo'lamiz. Hasanning yolg'izlik darajasi bosqichma-bosqich rivojlanadi. Xuddi shu epizodda Hasan o'tmishga qaytib, bolaligida Metin va Nilgun bilan bo'lgan do'stligini eslaydi. Bu xotiralar Hasanga taskin beradi. Zamonlar o'rtasidagi almashinuv jarayoni postmodern matndagi uch o'lchamlilik xususiyatini namoyon etadi. Hasan oradan o'n besh yil o'tib ham boylik

<sup>18</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, İletişim Yayınları, İstanbul, 1996, B.73.

<sup>19</sup> O'sha asar B. 101.

<sup>20</sup> O'sha asar B. 148.

<sup>21</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, İletişim Yayınları, İstanbul, 1996, B.151.

orzusidan voz kechmagan. Uning jamiyat bilan ziddiyati yolg'izlikning asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Hasan o'sha kuni Nilgunni uchratadi, millatchi yoshlar guruhidan Mustafoga ham ularga ergashadi. Nilgun qo'lida "Jumhuriyat" gazetasi bilan uyiga ketayotganda, Hasan u bilan gaplashmoqchi bo'ladi, lekin bu urinishi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Yigirma oltinchi bobda romanning intrigasi o'zining avj nuqtasiga chiqadi. Ushbu bobda ikkita holat zanjiri birlashadi. Yigirma beshinchi bobda millatchi yoshlar tomonidan tunab ketilgan Metin o'sha kechada yana Hasan bilan uchrashadi<sup>22</sup>. Ular birgalikda Farukning ishlamaydigan Anadolini itarib yuborishadi. Mashina yurib ketgach, Metin Hasanni yolg'iz qoldirib, qochib ketadi. Ertasi kuni Hasan Nilgunning uyiga borib, uning xonasidagi narsalarni ko'zdan kechiradi. So'ng qirg'oqqa borib, Nilgunni poylay boshlaydi. Nilgun uyga qaytayotganda yana "Jumhuriyat" gazetasini sotib oladi. Pamuq ushbu epizodda voqealarni takrorlash usulidan unumli foydalanadi. Voqea har takrorlanganda o'quvchini kulminatsiyaga tayyorlab boradi:

*"– Nega mendan qochib ketyapsan? Sen hatto men bilan salomlashishni ham rad etyapsan! Unga ayt, mening qanchalik yomonligimni ko'rsin! Bilasanmi, agar men bo'lmaganimda senga nima qilishardi? – deb qichqirardim.*

*– Kim ular? – dedi u.*

*– Nega yolg'on gapiryapsan? Bilmaydi deysanmi? Nega "Jumhuriyat"ni o'qiyapsan?*

*U javob berish o'rniga umidvor ko'zlari bilan atrofga alanglab, najot so'rardi. Shunday bo'lsa-da, so'nggi umid bilan uning qo'lidani ushlab: "Men seni yaxshi ko'raman, bilasanmi?" – dedim.*

*– Telba fashist, qo'yib yubor meni!*

*Shunday qilib, u boshqalar bilan bir ekanligini tan oldi. Avvaliga men juda hayron bo'ldim, lekin keyin uni o'sha yerda jazolashga qaror qildim va uni ochiqchasiga jazoladim..."*

23

Yigirma yettinchi bobda Rajab yerda yotgan Nilgunni ko'tarib uyiga olib ketayotganini ko'ramiz<sup>24</sup>. Bu qismda yana asarning hikoya uslubi retrospektiv tus olib, Nilgun, Metin va Hasanning bolalik yillari manzarasi tasvirlanadi. Ular qachonlardir Hasan inson hayotiga nuqta qo'yadi deb o'ylamaydilar. Asardagi yolg'izlik motiviga qarshi Faruk isyon qiladi. U yolg'izlikdan bezgan, bu hayotga o'zini begona his qilib, uzoq vaqt ko'cha kezadi, mehmonxonadagi ko'ngilochar bazmda qatnashadi. U hech narsani o'ylamasdan, yolg'izlik muhitidan ajralib, jamiyatga qo'shilishni xohlaydi.

Romanning keyingi boblarida voqealar zanjiri birlashtirilgan va to'ldirilgan. Nilgunni uyiga olib kelishadi, u kasalxonaga borishni istamaydi. O'ttizinchi bobda oila jam holida yana birga tasvirlanadi<sup>25</sup>. Istanbulga qaytishga tayyorgarlik ko'rishib, so'ng birga nonushta qilishadi. Nilgun ko'ngil aynishidan shikoyat qiladi. Shu nuqtada romanning eng muhim intriga zanjiri ham o'zining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Rajab roviylik qilgan so'nggi bob romanning kutilmagan yakuniga olib keladi: *"Nilgun qusayotganida, men uning oshqozoniga foydali narsa izlash uchun oshxonaga yugurdim. Keyin eslab yugurdim. Yana tepaga chiqsam, Nilgun jon bergan ekan. Bu miyaga qon quyilishidan edi"*<sup>26</sup>.

<sup>22</sup> O'sha asarB. 160.

<sup>23</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, İletişim Yayınları, İstanbul, 1996, B.163–164.

<sup>24</sup> O'sha asarB. 184.

<sup>25</sup> O'sha asarB. 206.

<sup>26</sup> O'sha asarB. 319.

O'ttiz birinchi bobda Hasanning mudhish voqeadan keyingi holati tasvirlangan<sup>27</sup>. U bir qarorga kelolmay, Nilgunning ahvolidan bexabar holda ruhiy konflikt ichiga tushib qoladi. Tadbirning ertasi kuni ertalab u vokzalga boradi va u yerda gazetalarni varaqlaydi. Gazetada yozilgan jabrlanganlarning ismlari orasida Nilgunni topolmaganiga xursand bo'ladi. Shu yerda Pamuq uning xarakteridagi yorug' sifatni ko'rsatib beradi. G'oyalar va muhabbat konfliktida g'oya yutib chiqsa-da, u muhabbatdan yaqqol ustun bo'lmasligi tabiiy. Matn tag zamirida ushbu fikrni o'qish mumkin. Hasan o'ziga bilet sotib oladi va noma'lum kelajagi sari – Istambulga yo'l oladi. Hasanning atrofdagi odamlarga, umuman, jamiyatga nisbatan dunyoqarashi, ichki ziddiyatlari uning so'nggi nutqida aks etadi: *“Mashinaning ichidan menga qarab turgan yuzlab boshlar: ular ertalab ishga ketishadi, kechki payt ishdan qaytishadi, ertalab ishga ketishadi, ishdan qaytib kelishadi, ertalab ishga ketishadi, kechki payt ishdan qaytadilar, bechoralar, bilishmaydi, bilishmaydi! Ular o'rganadilar! Men o'rgataman, lekin hozir emas. Endi, mayli, men ham hammangiz qatori ertalab ishga ketayotgandekman, qarang, gavjum poyezdga o'tiribman, oralaringizga kirib ketyapman. Vagonning ichi odamlarning tafti bilan ili! Mendan qo'rqinglar, mendan qo'rqinglar!”*<sup>28</sup>

Romanning oxirgi qismi Fatma Xonim tomonidan hikoya qilinadi<sup>29</sup>. Bu bob chuqur va ichki sukunatni ifodalaydi. Roman nomidagi “Sassiz uy” obraziga ishora qilinadi. Fatma Xonim uydagi sukunat sababi haqida o'ylaydi. U Rajabni bir necha marta chaqirsa ham, hech kim eshitmaydi. So'ng eski tanishlari haqida o'ylaydi, do'stlari Nigan, Turkan va Shukranni yodga oladi. Fatma Xonim hayotni qayta reforma qilish uchun o'tmishni qo'msaydi. U o'tmishdan panohtopib yana baxtli bo'lishga, o'z hayotidagi og'riqlar va iztiroblarni yengillashtirishni xohlaydi.

“Sassiz uy” romani yozuvchining badiiy-estetik g'oyasini ifodalovchi quyidagi jumlar bilan tugaydi: *“O'sha bir martalik avtomobil sayohati tugagach, hayotni qayta boshlay olmaysiz, lekin qo'lingizda kitob bo'lsa, qanchalik chalkash va tushunarsiz bo'lmasin, u tugagach, tushunarsiz ishni qilish mumkin, agar hayotni yana tushunmoqchi bo'lsangiz, avvaliga qaytib, kitobni yana o'qib chiqishingiz mumkin, to'g'rimi, Fatma?”*<sup>30</sup> Asarda yolg'izlik motivi bilan birga ijtimoiy evrilishlar, Sharq-G'arb qarama-qarshiligi kabi mavzular ko'rsatilgan. Pamuq mazkur romanda polifonik kompozitsiyadan foydalanib, roviylar sonini ko'paytirish orqali monistik nuqtayi nazardan qochishga harakat qilgan. Romandagi voqealar zanjiri va yozuvchining badiiy g'oyasi ukrainalik olim Dmitriy Zatonkiyning “Postmodern davr termoyadroviy oxirzamon sodir bo'lmagandan keyin boshlandi. Biz dunyoning tubiga nazar soldik, ammo hayotda yashab qoldik. Albatta, buning uchun E'tiqod, Umid, Muhabbat bilan to'lov to'ladik”,<sup>31</sup> degan fikrlari bilan uyg'un keladi deyish mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Pamuqning postmodern romanchilik an'alarini boshlab bergan asari “Sassiz uy” romani hisoblanadi. Romanning asosiy g'oyasi “yolg'izlik” muammosini yechishga qaratilgan bo'lib, butun bir avlodning yolg'izlikning turli darajasidagi taqdirlari kesishmasidan iborat. Asardagi ko'plab sevgi voqealari umidsizlik, tushkunlik yoki iztirob bilan tugaydigan umumlashmalardan tashkil topgan. Romanda Pamuq yolg'izlik mavzusini o'rta tashlab, uy ramzi

<sup>27</sup> O'sha asar B. 214.

<sup>28</sup> O'sha asar. B. 219.

<sup>29</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, Iletişim Yayınları, İstanbul, 1996, B. 220.

<sup>30</sup> O'sha asar B. 224–225.

<sup>31</sup> Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000, Ст.67.

orqali barcha taqdirlarni bir yerga jamlaydi. Hayotdagi omadsizliklar, javobsiz sevgi kabi sabablar tufayli yolg'izlikka duch keladigan obrazlar o'ziga xos xarakterlarga ega va ularning ijtimoiy pozitsiyasi masalasi ham asarda o'ziga xos o'rin tutadi.

Asarda yolg'izlik motivi bilan birga ijtimoiy evrilishlar, Sharq-G'arb qarama-qarshiligi kabi mavzular ko'rsatilgan. Pamuq mazkur romanda polifonik kompozitsiyadan foydalanib, roviylar sonini ko'paytirish orqali monistik nuqtayi nazardan qochishga harakat qilgan.

Asarda postmodern romanga xos xususiyatlardan biri roviylarning ko'pligi va polifoniya kuzatiladi, shu sababli romanda besh nafar roviy qatnashadi. "Sassiz uy" o'tgan asrning 80-yillaridagi turk yoshlarining ruhiyatini, umumkayfiyatini tadqiq etishga bag'ishlangan asardir.